

НАТУРАЛЬНЫЙ РУССКИЙ ЯЗЫК

Учите русский слушая!

Часть 1
Новая методика
Учите русский слушая

Toshkent
«Adabiyot uchqunlari»
2016

УДК: 811.161.1

ББК: 81.2Rus2

X-79 Натуральный русский язык [Текст]
– Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 128 b.

ISBN: 978-9943-4660-6-7

УДК: 811.111

ББК: 81.2Rus2

Bir necha oyda erishadigan maqsadingizga ko'p yillar sarflash sizning eng katta xatoyingiz bo'ladi. Bu kitobda berilgan aniq, oson va samarasi isbotlangan usul orqali rus tilini har qachon-gidan ko'ra tezroq va osonroq o'rganasiz. Kitobning so'nggi sahifalariga yetib borganingizda rus tilida bemalol gaplasha boshlaysiz.

ISBN: 978-9943-4660-6-7

KIRISH

Tassavur qiling, birov zinalar orqali sakkizinchi qavatga ko‘tarildi. Agar u odam bosgan qadamlarni takrorlasangiz, siz ham xuddi shunday natijaga erishasiz. Osonroq tushunishingiz uchun yana bir misol keltiramiz?

Siz bir inson bilan tanishib qoldingiz, ammo telefon raqamini olmadingiz. Keyinroq u kishiga qo‘ng‘iroq qilish uchun to‘g‘ri kelgan raqamlarni turli tartibda tersangiz, u bilan bog‘lanishga qancha vaqt ketadi? Taxminan butun umringiz, shunday emasmi? Lekin undan telefon raqamini olsangiz (ya‘ni qaysi raqamdan keyin qaysinisi kelishini aniq bilsangiz) va qo‘ng‘iroq qilsangiz, bor-yo‘g‘i bir necha soniyalarda niyatingizga yetasiz. Demak, aziz o‘quvchi, nimani qachon qilishni bilsangiz, bir necha soniyalarda g‘alabaga erishishingiz aniq. Kitob sahifalarida bor mahoratimizni ishga solib rus tilini o‘rganishdagi g‘alabangiz uchun kerakli ma‘lumotlarni o‘ziga xos tartibda va sinalgan usulda keltirib o‘tamiz. Faqat til o‘rgatish bilan cheklanmaymiz, hayotingizda asqotadigan ko‘plab fikrlarni ham berib ketamiz. Chunki bizning maqsadimiz – sizning g‘alabangiz,

Har darsning yakunida, agar amalda qo‘llanilsa, sizni haqiqiy omadli insonga aylantiruvchi bitta muvaffaqiyat siri beriladi. Faqat bir sharti bor: biz maslahatni beraman, siz esa uni amalda qo‘llaysiz. Bor-yo‘g‘i shu.

Katta sayohat boshlanmoqda! Tayyormisiz? Unda ketdik!

YANGI SISTEMASIGA XUSH KELIBSIZ!

Bu sistemadan to'liq foydalansangiz, rus tilida so'zlashishingiz tez orada yaxshilanadi. Bizning sistemamiz mustaqil o'rganuvchilarga ham, o'qituvchilar bilan birgalikda shug'ullanuvchilarga ham birdek tavsiya etiladi. Sistema asosan eshitish va gapirishga ixtisoslashgan. Amalda isbotlangan va sinalgan uslublar imkoni boricha tezroq gapirish malakalarini egallash maqsadini ko'zlab tartiblashtirilgan. Dunyo bo'yicha millionlab o'quvchilar tajribasidan o'tgan samarali sistema sizning qo'lingizda. Endi tilni an'anaviy usuldagiga nisbatan kamida 10 marta tezroq o'rganasiz.

Sistemani aynan biz ko'rsatgandek ishlatish juda muhim. Yuqorida keltirilgan yettita qoidani izohlaganimda sezgan bo'lsangiz kerak: har bir bandi o'ta muhim va boshqa bandlar bilan birga kuchli sistemani tashkil qiladi.

Olti oy muntazam, bir kun ham qoldirmay ushbu sistema bo'yicha shug'ullansangiz, ruscha gapirish malakangiz hosil bo'ladi. Gapirayotganda grammatikangiz ham yaxshilanadi, lekin biron marta grammatikani o'qimaysiz. Talaffuzingizga e'tibor bermasak ham, o'z-o'zidan ruslarnikidek bo'lib qoladi. Dasturimiz dunyoning eng zo'r metodiklarini o'rganish natijasida tuzilgan. Biz chet tilini o'rganish bo'yicha eng zo'r texnika va metodikalarni jamladik hamda sodda, aniq, ishlatish uchun qulay sistemaga soldik. Agar yuqorida aytganimizdek, 6 oy davomida bu sistema bilan shug'ullansangiz, muvaffaqiyat qozonmasligingiz mumkin emas. Hademay rus tilida juda yaxshi gapira boshlaganingizni o'zingiz ham sezasiz.

Endi navbat darslarga!

Darslardan qanday foydalanish kerak?

Har bir dars kamida 2-3 ta qismdan iborat. Bir dars tarkibidagi dars qismlarining nomi bir xil bo'ladi. Bu darslarning hammasi birga eshitaladi.

Har kuni bir darsning ichidagi hamma qismlarni baravar olib boring.

Bir hafta yoki undan ko'proq vaqt davomida FAQAT BITTA NOMDAGI darslarni eshiting.

BU JUDA MUHIM!!!

Siz faqat mana bu eshitish rejasiga to'liq amal qilganingizdagina natijaga erishasiz: BITTA DARSNI BIR HAFTA DAVOMIDA HAR KUNI!

Ba'zi darslarning 3 tadan ko'proq qismlari bor.

Xo'sh, darslar qanday qismlardan tarkib topgan?

* Qo'llanmada har bir eshitiladigan darslarning yozma shakli ham bor. Kitobni faqat o'qimang. Yodlamang. Kuniga bir necha marta o'qisangiz ham bo'ladi. Dastlab eshitganingizda tushunmasangiz, kitobni olib lug'atdan foydalanib tarjimasini bilib oling. Kitobdan qachon foydalanish kerakligi yozilgan joyga diqqat qiling.

«Мини расказ» darslari

Bu eng muhim qism hisoblanadi. Boshida shunchaki qayta-qayta eshiting. Keyinchalik savolni eshitib, kerak bo'lsa kompyuteringizdan yoki noutbusingizdan «pause» tugmasini bosing. Har bir savolga rus tilida baland ovozda javob bering. Yana eshitishda davom eting. Agar hammasini tushunmasangiz, xavotir olmang. Xatolar haqida qayg'urish sizga yarashmaydi, kerak ham emas.

Savol-javob (Мини расказ) darslarida 3 ishni qilamiz.

1. Biz gap aytamiz. Gapdan keyin shunchaki «Ahhhh» yo «Ohhhh» deng.
2. Biz siz javobini biladigan savolni so'raymiz. Shunchaki javob bering. To'liq gap bilan javob berishingiz shart emas. Bir yoki ikkita so'z bilan javob bersangiz ham bo'ladi.
3. Biz siz javobini bilmaydigan savolni so'raymiz. Siz endi taxminan javob qaytarishingiz kerak. Xatolaringizga ahamiyat bermang. Sekin-sekin o'z-o'zidan to'g'irlanib ketadi. Sistemamiz juda kuchli. Siz xavotir olmang. Muhimi, tez javob bering. Har

safar yanada tezroq javob berishga harakat qiling. Tezlik sizning maqsadingiz bo'lsin. Tezmi, demak, qisqa javob berganingiz ma'qul. Boshida biroz qiyin bo'lishi mumkin. Xavotirlanmang, hammasi joyida. Kompyuteringizdagi «pause» tugmasini bosing. Savol-javob (Мини рассказ) darslarini kamida yetti kun davomida har kuni juda ko'p martalab eshiting. Bu darslar sistemamizning eng muhim qismi hisoblanadi. Demak, hammasidan ko'proq shu darslarni tinglang.

«Основное аудио»

Shunchaki eshiting. Bu darslarni bir hafta davomida har kuni bir necha martalab tinglang. Bu audio darslardan yagona maqsadingiz 100 foiz avtomatik tarzda eshitganlarni tushunishga erishish bo'lmog'i kerak.

«Точки зрения» (ТЗ)

Bu darslar grammatika o'qimasdan ham osongina gapirishga yordam beradi. Shunchaki e'tibor berib tinglang. Dam oling. Mazza qilib eshiting. Oxiri yo'q va qiyin grammatik qoidalar o'rniga mazza qilib tinglash – yaxshi emasmi? Bu darslarimiz sizga o'z-o'zidan grammatik jihatdan to'g'ri gapirishni o'rgatadi. Grammatik qoidalar haqida o'ylamang. Axir bizning asl maqsadimiz o'rganish jarayonini maroqli qilish-ku.

Tavsiya qilinadigan tartib: (Bir haftada har kuni bitta darsni eshiting)

1. Birinchi navbatda kitobdan faqat darsni o'qing. O'qing hamda takrorlang. Yodlamang. Yodlashga harakat ham qilmang.

3. Asosiy audio (Главное Аудио)ni eshiting. Agar ba'zi joylarini tushunmasangiz, lug'atdan foydalanib tushunib oling. Lug'at faqat bir tushunib olguncha kerak. Eshitayotgan paytda kitobga qarab ko'proq tushunishga harakat qiling.

4. Savol-javob (Мини рассказ) darslarini ko'p martalab eshiting. Savollarga tezroq, yanada tezroq javob berishga harakat qiling.

5. ТЗ darslarini yetti kun davomida har kuni bir necha martalab eshiting.

Tartib – ixtiyoriy. Shunchaki, quyidagi o‘rganish jadvaliga e‘tibor bering.

O‘rganish jadvali

Bizning sistemamiz CHUQUR O‘RGANISH sistemasidir. Siz har bir darsni yaxshilab, ko‘p martalab tinglang hamda puxta o‘rganing.

Eng zo‘r o‘rganish jadvali quyidagicha:

*Bitta darsni 1-2 hafta tinglang. Faqat bitta dars bilan kamida bir hafta shug‘ullanishingiz lozim. Zerikib qolsangiz, «Мини расказа»lar bilan shug‘ullaning. Savollarga tezroq javob berishga harakat qiling.

*Har kuni bitta darsning ichidagi hamma qismlarni tinglang. Har bir qismni eng kamida 2-3 marta eshitishga harakat qiling, ayniqsa, Asosiy audio (Главное Аудио), Savol-javob (Мини рассказ) va ТЗ darslarini har kun eshiting.

*Har kuni kamida bir soat tinglang. **Ikki soat eshitish – eng zo‘ri.** Kuningizni bir necha qismga bo‘lib olganingiz ma‘qul. Masalan, ertalab yugurayotganingizda 30 daqiqa yoki 1 soat, ishga ketayotganda yana 30 daqiqa, tushlik paytda 30 daqiqa, uyga qaytguncha 30 daqiqa, uxlashdan avval yana 30 daqiqa tarzida darsni bo‘lib-bo‘lib eshitish ham mumkin.

*Mazza qilib tinglang. Dam oling. Grammatik qoidalar haqida o‘ylamang. Shunchaki, tinglang va rohatlaning.

*Birinchi darsdan boshlang. Ikkinchi dars qiyinroq. Darslar borgan sari qiyinlashib ketaveradi. Lekin biron dars oson tuyulsa ham, baribir 1-2 hafta tinglang.

*So‘zlarni bilishingiz mumkin. Lekin bu hali muvaffaqiyat emas, siz gaplarni yod qilib yuborishingiz kerak. Shunda oson va juda tez gaplashishni boshlaysiz. Agar darslar qiyin tuyulsa, biroz dam oling. Bir darsni 4 yoki 10 hafta ham eshitishingiz mumkin. Birdaniga ko‘p dars eshitishga qiziqmang. Ko‘p eshitish muhim emas. Dam oling va vaqti-vaqti bilan tinglab tushunishga e‘tibor qarating. SEKINROQ BORING.

Matndan foydalanish:**1. Avvaliga shunchaki tinglang!**

Boshida matndan foydalaning. «Мини расказ» hikoyalarini matnni o'qimasdan tushunishga harakat qiling. Agar tushunsangiz, matn sizga kerak emas, shunchaki, eshitishda davom etavering. Lekin eshitib tushunmasangiz, albatta, matnga qarashingiz kerak. Sizning birinchi maqsadingiz – matnni to'liq tushunib olish. Undan keyin kitobga qarashni kamaytirish kerak.

2. Matnlardan faqatgina biror narsani tushunmaganingizda foydalaning. Agar biror so'zni tushunmasangiz, matndan foydalanishingiz mumkin. Shuningdek, lug'atdan foydalansangiz ham mayli.

3. Bir vaqtda ham o'qing, ham eshiting. Buni bir necha marta takrorlang.

Matnsiz ham hamma so'zlarga tushungan paytingiz ortiq kitobdan foydalaning. Faqat eshitayotgan paytda matnga qarang. Uni yod olmang.

4. Shunchaki eshiting.

Iloji boricha tezroq eshitishga bor e'tiborni qarating. Matnlar shunchaki yordamchi material, xolos. Asosiysi, tinglash.

O'QISHGA EMAS, ESHITISHGA E'TIBOR QILING. Ko'proq vaqtingizni «Мини расказ» darslarini tinglashga (va javob berishga) sarflang. Matnlardan kamroq foyda olishingiz mumkin.

УРОК I**1-DARS****A**

Assalomu alaykum. Darsimizni boshlashdan avval qomatlarni rostlab, chuqur-chuqur nafas olamiz, tabassum qilamiz hamda mavzuni eshitayotib bir joyda turib qolmaymiz. Yaxshi musiqa qo'yib, bir raqsga tushib olsangiz ham bo'ladi. Kayfiyatlar ko'tarilgach, quyidagi tartibda darslarimizni boshladik.

Главное аудио qismlarini shunchaki tinglang.

Eshitayotganda tarjimasiga qarab boring. Maqsad – kitobga qaramasdan tinglaganda ham tushuna olish. Matsiz tushunishni boshlashingiz bilan kitobga qarashdan voz keching!

Darsning savol-javob (Мини расказ) qismida savollarga javob berishni boshlang. Kerak bo‘lsa, «pause» tugmasidan foydalaning. Boshida sekin javob bersangiz ham bo‘ladi.

Endi savollarga tezroq javob bering.

Darslarni 7 kun davomida kuniga kamida 1 soatdan yoki undan ko‘proq eshiting. Har bir o‘quvchining o‘rganish tezligi turlicha. Sistemamiz sizga o‘z tezligingizda o‘rganish imkonini beradi.

Savol: «Men darslarni 4 kunda eshitib tugatyapman. Keyingi darsga o‘taversam bo‘ladimi?»

Javob: Yo‘q. Ko‘pchilik o‘quvchilar shu savolni so‘rashadi. Tajribam davomida tushundimki, bizning darslarimizni kamida 7 kun eshinish kerak. Agar sizda yanada ko‘proq tinglashga imkon bo‘lsa, marhamat. Lekin bitta darsni 20 va 30 martadan eshita olmayotgan bo‘lsangiz, shoshilmang. Yosh bolalar shoshiladi. Ahmoqlar shoshiladi. Siz esa, mening qadrdomim, ahmoq bo‘lganingizda bu kitobni ushlab ham ko‘rmagan bo‘lardingiz. Demak, darslarni qancha ko‘p eshitsangiz, shuncha yaxshi. Faqat bir hafta har kuni bir-ikki soatdan kam bo‘lmasin. Bitta darsni kamida 20 marta tinglang. Agar muvaffaqiyatga intilishingiz o‘ta jiddiy bo‘lsa, 30 martadan ko‘proq ham tinglashingiz mumkin.

ГЛАВНОЕ АУДИО

Основная часть 1

Я счастливый (-ая).

Я печальный (-ая).

Я умный (-ая).

Я не глупый (-ая)

Я глупый (-ая).

Я богатый (-ая).

Men baxtliman.

Men xafamasman.

Men xafaman.

Men aqlliman.

Men ahmoq emasman.

Men ahmoqman.

Men badavlatman.

Я не бедный (-ая) /
 Я бедн (-ая).
 Я популярный (-ая).
 Я знаменитый (-ая).
 Мне не холодно / Мне холодно.

Мне жарко.
 Я энергичный (-ая).
 Я трудолюбивый (-ая).
 Я не ленивый (-ая) /
 Я не ленивый (-ая).
 Я сыт (-а).
 Я не голоден (голодна) /
 Я голоден (голодна).
 Я хороший (-ая).
 Я не плохой (-ая)
 Я не старый (-ая)
 Я старый (-ая)
 Я симпатичный (-ая).
 Я красивый (-ая).
 Я не уродливый (-ая) /
 Я уродливый (-ая).
 Я умный (-ая).
 Я не сумасшедший (-ая) /
 Я сумасшедший (-ая).

Men kambag'al emasman
 (kambag'alman).
 Men mashhurman.
 Men taniqliman.
 Men sovqotmayarman
 (sovqotyapman).
 Men isib ketyapman.
 Men g'ayratliman.
 Men mehnatkashman.
 Men dangasa emasman
 (dangasaman).
 Men to'qman.
 Men och emasman
 (ochman).
 Men yaxshiman.
 Men yomon emasman.
 Men qari emasman.
 Men qariman.
 Men kelishganman.
 Men chiroyliman.
 Men xunuk emasman
 (xunukman).
 Men ziyoliman.
 Men telba emasman
 (telbaman).

Основная часть 2

Ты счастливый (-ая).
 Ты не печальный (-ая)
 Ты умный (-ая).
 Ты не глупый (-ая).
 Ты богатый (-ая).
 Ты не бедный (-ая).
 Ты популярный (-ая).

Sen juda baxtlisan.
 Sen g'amgin emassan.
 Sen aqllisan.
 Sen ahmoq emassan.
 Sen badavlatsan.
 Sen kambag'al emassan.
 Sen mashhursan.

Ты знаменитый (-ая).	Sen taniqlisan.
Тебе не холодно.	Sen sovqotmayapsan.
Тебе жарко.	Sen isib ketyapsan.
Ты энергичный (-ая).	Sen g'ayratlisan.
Ты трудолюбивый (-ая).	Sen mehnatkashsan.
Ты не ленивый (-ая) /	Sen dangasa emassan
Ты ленивый (-ая).	(dangasasan).
Ты сыт (-а).	Sen to'qsan.
Ты голоден (голодна).	Sen ochsan.
Ты хороший (-ая).	Sen yaxshisan.
Ты неплохой (-ая).	Sen yomon emassan.
Ты молодой (-ая).	Sen yoshsan.
Ты не старый (-ая).	Sen qari emassan.
Ты симпатичный.	Sen kelishgansan.
Ты красивая.	Sen chiroylisan.
Ты не некрасивый (-ая).	Sen xunuk emassan.
Ты интеллигентный (-ая).	Sen o'qimishlisan.
Ты не сумасшедший (-ая).	Sen ahmoq emassan.

Основная часть 3

Он/Она очень счастлив (-ая).	U juda baxtli.
Он/Она не печальный (-ая).	U xafa emas.
Он/Она умный (-ая).	U aqli.
Он/Она не глупый (-ая).	U ahmoq emas.
Он/Она очень богатый (-ая).	U juda badavlat.
Он/Она не бедный (-ая).	U kambag'al emas.
Он/Она не популярный (-ая).	U mashhur emas.
Он/Она совсем не знаменитый (-ая).	U umuman taniqli
	emas.
Ему/Ей не холодно.	U sovqotmayapti.
Ему/Ей не жарко.	U isib ketmayapti.
Он/Она энергичный (-ая).	U harakatchan.
Он/Она трудолюбивый (-ая).	U mehnatkash.
Он/Она не ленивый (-ая).	U dangasa emas.

Он/Она сыт (-а).	U to‘q emas.
Он/Она немного голоден (голодна).	U ozgina och.
Он/Она хороший (-ая).	U yaxshi.
Он/Она не плохой (-ая).	U yomon emas.
Он/Она очень молодой (-ая).	U juda yosh.
Он/Она не старый (-ая).	U qari emas.
Он /Она симпатичный (-ая)	U kelishgan.
Он/Она красивый (-ая).	U chiroyli.
Он/Она не уродливый (-ая).	U xunuk emas.
Он/Она интеллигентный (-ая).	U ziyoli.
Он/Она не сумасшедший (-ая).	U telba emas.

Основная часть 4

Мы счастливы.	Biz baxtlimiz.
Мы не печальные.	Biz xafa emasmiz.
Мы достаточно умные.	Biz ancha aqllimiz.
Мы не глупые.	Biz ahmoq emasmiz.
Мы очень богатые.	Biz juda badavlatmiz.
Мы не бедные.	Biz kambag‘al emasmiz.
Мы популярные.	Biz juda mashhurimiz.
Мы знаменитые.	Biz taniqlimiz.
Нам не холодно.	Biz sovqotmayapmiz.
Нам часто жарко.	Biz tez-tez isib ketamiz.
Мы энергичные.	Biz harakatchanmiz.
Мы трудолюбивые.	Biz mehnatkashmiz.
Мы совсем не ленивые.	Biz umuman dangasa emasmiz.
Мы сейчас не сыты.	Biz hozir to‘q emasmiz.
Мы сейчас голодны.	Biz ayni paytda ochmiz.
Мы всегда хорошие.	Biz har doim yaxshimiz.
Мы не плохие.	Biz yomon emasmiz.
Мы очень молодые.	Biz juda yoshmiz.
Мы не старые.	Biz qari emasmiz.

Мы симпатичные.
Мы очень красивые.

Мы не уродливые.
Мы умные.
Мы не сумасшедшие.

Biz kelishganmiz.
Biz nihoyatda
chiroylimiz.
Biz xunuk emasmiz.
Biz ziyolimiz.
Biz telba emasmiz.

Основная часть 5

Вы всегда счастливы.
Вы не печальны.
Вы достаточно умны.
Вы не глупы.
Вы очень богаты.
Вы не бедны.
Вы тоже популярны.
Вы знамениты.
Вам не холодно.
Вам никогда не жарко.

Вы энергичны.
Вы трудолюбивы.
Вы не ленивы.
Вы не сыты.
Вы часто голодны.
Вы хорошие.
Вы неплохие.
Вы молоды.
Вы не стары.
Вы стройны.
Вы весьма красивы.

Вы не безобразны.
Вы умны.
Вы не сумасшедший (-ая).

Siz har doim baxtlisiz.
Siz g'amgin emassiz.
Siz ancha aqlisiz.
Siz ahmoq emassiz.
Siz juda badavratsiz.
Siz kambag'al emassiz.
Siz ham mashhursiz.
Siz taniqlisiz.
Siz sovib ketmayapsiz.
Siz hech qachon isib
ketmaysiz.
Siz harakatchansiz.
Siz mehnatkashsiz.
Siz dangasa emassiz.
Siz to'q emassiz.
Siz tez-tez ochsiz.
Siz yaxshisiz.
Siz yomon emassiz.
Siz yoshsiz.
Siz qari emassiz.
Siz kelishgansiz.
Siz nihoyatda
chiroylisiz.
Siz xunuk emassiz.
Siz ziyolisiz.
Siz telba emassiz.

Основная часть 6

Они изредка счастливы.

Они не грустны.

Они умные.

Они не глупые.

Они богаты.

Они не бедны.

Они популярны.

Они очень знамениты.

Им не холодно.

Им жарко.

Они весьма энергичны.

Они трудолюбивые.

Они не ленивые.

Они сыты.

Они не голодны.

Они сегодня хорошие.

Они не плохие.

Они молодые.

Они не старые.

Они симпатичные.

Они очень красивые.

Они не уродливые.

Они умные.

Они не глупые.

Ular kamdan kam baxtli
bo'lishadi.

Ular xafa emas.

Ular aqlli.

Ular ahmoq emas.

Ular badavlat.

Ular kambag'al emas.

Ular mashhur.

Ular juda taniqli.

Ular sovqotishmayapti.

Ular isib ketishyapti.

Ular o'ta harakatchan.

Ular mehnatkash.

Ular dangasa emas.

Ular juda to'q.

Ular och emas.

Ular bugun yaxshi.

Ular yomon emas.

Ular yosh.

Ular qari emas.

Ular kelishgan.

Ular judayam chiroyli.

Ular xunuk emas.

Ular ziyoli.

Ular telba emas.

Основная часть 7

Вопросы и ответы

Я счастлив (-а).

Ты счастлив (-а) сегодня?

Да, я счастлив (-а).

Men baxtliman.

Sen bugun

baxtlimisan?

Ha, men baxtliman.

Ты печальный?

Нет, я совсем не печальный.

У тебя сейчас все хорошо?

Да, у меня все хорошо.

У тебя все в порядке?

Да, у меня все прекрасно.

Ты всегда такой

удивительный (-ая)?

Да, я удивительный (-ая).

Ты хороший?

Да, я хороший (-ая).

Он/она плохой (-ая)?

Нет, он/она не плохой (-ая),

он/она хорошая.

Он/она плохой (-ая) или

хороший (-ая)?

Он/она плохой (-ая),

Он/она не хороший (-ая).

Как ты?

У меня все отлично.

Я умный (-ая).

Ты умный (-ая)?

Да, я умный (-ая).

Ты дурак (дура)?

Нет, я не дурак (не дура).

Ты интеллигентный (-ая)?

Да, я интеллигентный (-ая).

Ты сумасшедший (-ая)?

Sen xafamisan?

Yo'q, men umuman
xafamasman.

Senda hozir hammasi
joyidami?

Ha, menda hammasi
joyida.

Sen yaxshimisan?

Ha, men zo'rman.

Sen har doim shunday

ajoyibmisan?

Ha, men ajoyibman.

Sen yaxshi

odammisan?

Ha, men yaxshi

odamman.

U yomonmi?

Yo'q, u yomonmas, u

yaxshi.

U yomonmi yoki

yaxshi?

U yomon, yaxshi ymas.

Qalaysan?

Men zo'rman.

Men aqlliman.

Sen aqllimisan?

Ha, men aqlliman.

Sen ahmoqmisan?

Yo'q, men

ahmoqmasman.

Sen o'qimishlimisan?

Ha, men o'qimishliman.

Sen telbamisan?

Нет, я не сумасшедший (-ая).

Ты умный (-ая)?

Да, я умный (-ая).

Я богатый (-ая).

Ты богатый?

Да, я богатый.

Ты бедный?

Нет, я не бедный (-ая).

Он богатый?

Да, он богатый.

Он бедный?

Нет, он не бедный.

Я популярный (-ая).

Ты знаменитый (-ая)?

Да, я знаменитый (-ая).

Ты популярный?

Да, я популярный.

Вы популярны?

Да, мы популярны.

Они популярные?

Нет, они не популярные.

Он знаменитый?

Нет, он не знаменитый.

Ты популярный?

Да, я популярный.

Мне жарко.

Тебе жарко?

Да, мне жарко.

Тебе очень холодно?

Нет, мне не холодно.

Ему жарко?

Нет, ему не жарко.

Yo'q, men telba
emasman.

Sen aqllimisan?

Ha, men aqlliman.

Men badavlatman.

Sen badavlatmisan?

Ha, men badavlatman.

Sen kambag'al misan?

Yo'q, men kambag'al
emasman.

U badavlatmi?

Ha, u badavlat.

U kambag'al mi?

Yo'q, u kambag'al emas.

Men mashhurman.

Sen taniqlimisan?

Ha, men taniqliman.

Sen mashhur misan?

Ha, men mashhurman.

Siz mashhur misiz?

Ha, biz mashhurimiz.

Ular mashhur mi?

Yo'q, ular mashhur emas.

U mashhur mi?

Yo'q, u mashhur emas.

Sen mashhur misan?

Ha, men mashhurman.

Men isib ketayapman.

Sen isib ketyapsan mi?

Ha, men isib ketyapman.

Sen juda sovqotyapsan mi?

Yo'q, men

sovqotmayapman.

U isib ketyaptimi?

Yo'q, u isib ketmayapti.

Ему холодно?

Да, ему холодно.

Нам холодно?

Нет, нам не холодно.

Ему (ей) жарко или холодно?

Ему (ей) холодно, ей не жарко.

Я энергичен(-чна).

Ты очень энергичный (-ая)?

Да, я очень энергичный (-ая)

Она энергичная?

Да, она энергичная.

Он всегда энергичный?

Да, он всегда энергичный.

Они энергичны?

Нет, они не энергичны.

Я трудолюбивый (-ая).

Ты трудолюбивый (-ая)?

Да, я трудолюбивый (-ая).

Ты иногда ленивый (-ая)?

Нет, я не ленивый (-ая).

Они ленивые?

Да, они ленивые.

Он ленивый?

Нет, он не ленивый.

Она ленивая?

Да, она ленивая.

Я голоден (-на).

U sovqotyaptimi?

Ha, u sovqotyapti.

Biz sovqotyapmizmi?

Yo'q, biz sovqotmayapmiz.

U isib ketyaptimi yoki sovqotyaptimi?

U sovqotyapti, isib ketmayapti.

Men harakatchanman.

Sen juda

harakatchanmisan?

Ha, man juda

harakatchanman

U harakatchanmi?

Ha, u harakatchan.

U har doim

harakatchanmi?

Ha, u har doim

harakatchan.

Ular harakatchanmi?

Yo'q, ular harakatchan

emas.

Men mehnatkashman.

Sen mehnatkashmisan?

Ha, men mehnatkashman.

Sen ba'zida dangasamisan?

Yo'q, men dangasa

emasman.

Ular dangasami?

Ha, ular dangasa.

U dangasami?

Yo'q, u dangasa emas.

U dangasami?

Ha, u dangasa.

Men ochman.

Ты сейчас сыт?

Нет, я не сыт.

Вы голодны?

Да, мы голодны.

Он немного голоден?

Да, он немного голоден.

Она голодна?

Нет, она не голодна.

Я молодой (-ая)

Ты довольно молодой (-ая)?

Да, я довольно молодой (-ая).

Он довольно молодой?

Нет, он не молодой. Он старый.

Она старая?

Нет, она не старая. Она молодая.

Мы довольно старые?

Нет, мы недостаточно стары.

Мы молоды.

Я симпатичный.

Ты симпатичный?

Да, я симпатичный.

Он симпатичный?

Да, он симпатичный.

Он не уродливый

Она довольно красивая?

Да, она довольно красивая.

Она не уродливая.

Hozir to'qmisan?

Yo'q, to'q emasman.

Siz ochmisiz?

Ha, bizlar ochmiz.

U ozgina ochmi?

Ha, u ozgina och.

U ochmi?

Yo'q, u och emas.

Men yoshman.

Sen ancha yoshmisan?

Ha, men ancha yoshman.

U ancha yoshmi?

Yo'q, u yosh emas. U qari.

U qarimi?

Yo'q, u qari emas. U yosh.

Bizlar ancha qarimizmi?

Yo'q, bizlar uncha qari

emasmiz. Biz yoshmiz.

Men kelishganman.

Sen kelishganmisan?

Ha, men kelishganman.

U kelishganmi?

Ha, u kelishgan.

U xunuk emas.

U ancha go'zalmi?

Ha, u ancha go'zal.

U xunuk emas.

Б

Основная часть 1

Я всегда живу в Ташкенте.

Я с интересом изучаю
английский язык.

Men har doim Toshkentda
yashayman.

Men ingliz tilini qiziqib
o'rganaman.

Я очень хорошо говорю

на английском.

Я готовлю еду.

Я люблю шашлык.

Я кушаю шашлык.

Я пью чай.

У меня есть новая машина.

Я работаю в госпитале.

Я читаю много книг.

Я слушаю музыку

Я еду в Термез.

Я часто чищу зубы.

Я играю в футбол вместе

своими друзьями.

Я встаю утром.

Я сплю ночью.

Я редко смотрю телевизор.

Я задаю вопрос.

Я отвечаю на вопросы.

Я покупаю(-ла) в магазине

ручку/карандаш.

Я вожу машину быстро.

Я объясняю правила.

Я понимаю вас.

Я начинаю урок.

Я заканчиваю урок.

Men ingliz tilida juda

yaxshi gapiraman.

Men ovqat pishiraman.

Men shashlikni yaxshi

ko'raman.

Men shashlik yeyapman.

Men choy ichaman.

Menda yangi mashina bor.

Men kasalxonada

ishlayman.

Men ko'p kitob o'qiyman.

Men musiqa eshityapman.

Men Termizga boraman.

Men tez-tez tishlarimni

yuvaman.

Men do'stlarim bilan futbol

o'ynayapman.

Men ertalab uyg'onaman.

Men tunda uxlayman.

Men kamdan kam televizor

ko'raman.

Men savol so'rayman.

Men savollarga javob

beraman.

Men do'kondan ruchka/

qalam sotib olaman.

Men mashinani tez

haydayman.

Men qoidalarni

tushuntiraman.

Men sizni tushunaman.

Men darsni boshlayman.

Men darsni

tugataman.

Основная часть 2

Ты живешь в Ташкенте.
Ты изучаешь английский язык.

Ты очень хорошо говоришь
на английском.
Ты готовишь еду.
Ты любишь шашлык.

Ты кушаешь шашлык.
Ты пьешь чай.
У тебя есть новая машина.

Ты работаешь в госпитале.

У тебя есть много книг.
Ты слушаешь музыку.
Ты едешь в Термез.
Ты чистишь зубы.

Ты играешь в футбол.
Ты встаешь утром.
Ты спишь ночью.
Ты смотришь телевизор.
Ты задаешь вопрос.
Ты отвечаешь на вопросы.
Ты покупаешь ручку/карандаш.

Ты водишь машину.
Ты объясняешь правила.

Ты понимаешь меня.
Ты начинаешь урок.
Ты заканчиваешь урок.

Sen Toshkenda yashaysan.
Sen ingliz tilini
o'rganyapsan.
Sen ingliz tilida juda
yaxshi gapirasan.
Sen ovqat tayyorlayapsan.
Sen shashlikni yaxshi
ko'rasan.
Sen shashlik yeyapsan.
Sen choy ichyapsan.
Senda yangi mashina
bor.
Sen kasalxonada
ishlaysan.
Senda ko'p kitoblar bor.
Sen qo'shiq eshityapsan.
Sen Termizga boryapsan.
Sen tishlaringni
yuvyapsan.
Sen futbol o'ynayapsan.
Sen ertalab turasan.
Sen tunda uxlaysan.
Sen televizor ko'rasan.
Sen savol so'raysan.
Sen javob berasan.
Sen ruchka/qalam sotib
olasan.
Sen mashina haydaysan.
Sen qoidalarni
tushuntirasan.
Sen meni tushunasani.
Sen darsni boshlaysan.
Sen darsni tugatasan.

Основная часть 3

Мы живем в Ташкенте.
Мы изучаем английский язык.

Мы очень хорошо говорим
на английском.
Мы готовим еду дома.

Нам нравится шашлык.
Мы никогда не кушаем шашлык.

Мы пьем чай.
У нас сейчас есть новая машина.
Мы работаем в госпитале.
Мы читаем много книг.
Мы слушаем музыку
в свободное время.
Мы едем в Термез.
Мы чистим свои зубы.

Мы играем в футбол.
Мы встаем утром.
Мы спим ночью.
Мы смотрим телевизор.
Мы задаем вопрос.
Мы отвечаем на вопросы.

Мы покупаем в магазине
ручку/карандаш.
Мы водим машину медленно.

Мы объясняем правила.

Мы понимаем вас.

Biz Toshkentda yashaymiz.
Biz ingliz tilini
o'rganyapmiz.
Biz ingliz tilida juda yaxshi
gapiramiz.
Biz ovqatni uyda
tayyorlaymiz.
Biz shashlikni yoqtiramiz.
Biz hech qachon shashlik
yemaymiz.
Biz choy ichyapmiz.
Bizda hozir yangi mashina bor.
Biz kasalxonada ishlaymiz.
Biz ko'p kitob o'qiyamiz.
Biz bo'sh vaqtimizda
musiqa tinglaymiz.
Biz Termizga ketyapmiz.
Biz tishlarimizni
tozalayapmiz.
Biz futbol o'ynayapmiz
Biz ertalab turamiz.
Biz tunda uxlaymiz.
Biz televizor ko'ryapmiz.
Biz savol beryapmiz.
Biz savollarga javob
berypmiz.
Biz do'kondan ruchka/
qalam sotib olyapmiz.
Biz mashinani sekin
haydaymiz.
Biz qoidalarni
tushuntiryapmiz.
Biz sizni tushundik.

Мы рано начинаем урок.
Мы поздно заканчиваем урок.

Biz darsni erta boshlaymiz.
Biz darsni kech tugatamiz.

Основная часть 4

Вы живете в Ташкенте.
Вы с интересом изучаете
английский язык.
Вы говорите на английском.
Вы плохо готовите еду.

Вы любите шашлык.
Вы кушаете шашлык.
Вы пьете чай.
У вас есть новая машина.
Вы работаете в госпитале.
У вас есть много книг.
Вы слушаете музыку.
Вы едете в Термез.
Вы часто чистите зубы.

Вы играете в футбол
на стадионе.
Вы никогда не встаете рано.

Вы спите ночью.
Вы смотрите телевизор.
Вы задаете вопросы.
Вы отвечаете на вопросы.

Вы покупаете ручку/карандаш.

Вы водите машину.
Вы объясняете правила.

Siz Toshkentda yashaysiz.
Siz ingliz tilini qiziqib
o'rganasiz.
Siz ingliz tilida gapiryapsiz.
Siz ovqatni bemaza
tayyorlaysiz.
Siz shashlikni yoqtirasiz.
Siz shashlik yeysiz.
Siz choy ichasiz.
Sizda yangi mashina bor.
Siz kasalxonada ishlaysiz.
Sizda kop kitoblar bor.
Siz musiqa eshityapsiz.
Siz Termizga boryapsiz.
Siz tez-tez tishingizni
yuvasiz.
Siz stadionda futbol
o'ynayapsiz.
Siz hech qachon erta
turmaytiz.
Siz tunda uxlaysiz.
Siz televizor ko'ryapsiz.
Siz savol beryapsiz.
Siz savollarga javob
beryapsiz.
Siz ruchka/qalam sotib
olasiz.
Siz mashinani haydayapsiz.
Siz qoidalarni
tushuntiryapsiz.

Вы понимаете меня.
 Вы рано начинаете урок.
 Вы поздно заканчиваете урок.

Siz meni tushunyapsiz.
 Siz darsni erta boshlaysiz.
 Siz darsni kech tugatasiz.

Основная часть 5

Они живут в Ташкенте.
 Они очень хорошо изучают
 английский язык.
 Они говорят на английском.
 Они плохо готовят еду.
 Они любят шашлык.
 Они едят шашлык.
 Они много пьют чай.
 У них есть новая машина.
 Они работают в госпитале.
 Они часто читают книг.
 Они слушают музыку.
 Они редко едут в Термез.
 Они чистят свои зубы.
 Они играют в футбол на улице.
 Они встают утром.
 Они спят ночью.
 Они смотрят телевизор.
 Они задают вопросы.
 Они отвечают на вопросы.

Ular Toshkentda
 yashashadi.
 Ular ingliz tilini juda
 yaxshi o'rganishyapdi.
 Ular ingliz tilida
 gapirishadi.
 Ular bemaza ovqat
 qilishadi.
 Ular shashlikni
 yoqtirishadi.
 Ular shashlik yeydilar.
 Ular ko'p choy ichishadi.
 Ularda yangi mashina bor.
 Ular kasalxonada
 ishlashadi.
 Ular tez-tez kitob
 o'qishadi.
 Ular musiqa tinglashadi.
 Ular kamdan kam
 Termizga borishadi.
 Ular tishlarini yuvishyapti.
 Ular ko'chada futbol
 o'ynashyapti.
 Ular ertalab turishadi.
 Ular tunda uxlashadi.
 Ular televizor ko'rishyapti.
 Ular savollar berishyapti.
 Ular savollarga javob
 berishyapti.

Они покупают ручку/карандаш в магазине.	Ular do‘kondan ruchka/qalam sotib olishyapti.
Они водят машину медленно.	Ular mashinani sekin haydashadi.
Они объясняют правила.	Ular qoidalarni tushuntirishyapti.
Они меня понимают.	Ular meni tushunishyapti.
Они рано начинают урок.	Ular darsni erta boshlashadi.
Они поздно заканчивают урок.	Ular darsni kech tugatishadi.

Основная часть 6

Он/она живет в Ташкенте.	U Toshkentda yashaydi.
Он/она учит английский с интересом.	U Ingliz tilini qiziqib o‘rganadi.
Он/она вкусно готовит.	U ovqatni mazali pishiradi.
Он/она любит шашлык.	U shashlikni yaxshi ko‘radi.
Он/она пьет чай.	U choy ichadi.
У него/нее есть новая машина.	Unda yangi mashina bor.
Он/она работает в госпитале каждый день.	U har kuni kasalxonada ishlaydi.
Он/Она читает много книг в библиотеке.	U kutubxonada ko‘p kitob o‘qiydi.
Он/Она много слушает музыку.	U musiqa ko‘p eshitadi.
Он/Она едет в Термез.	U Termizga boradi.
Он/Она чистит свои зубы.	U tishlarini yuvadi.
Он/Она играет в футбол на улице.	U ko‘chada futbol o‘ynaydi.
Он/Она просыпается утром.	U ertalab uyg‘onadi.
Он/Она редко спит ночью.	U tunda kamdan kam uxlaydi.
Он/Она смотрит телевизор каждый вечер.	U kechqurunlari televizor ko‘radi.

Он/Она задает вопрос.	U savol soʻraydi.
Он/Она отвечает на вопросы.	U savollarga javob beradi.
Он/Она покупает ручку в магазине.	U bozordan ruchka/qalam sotib oladi.
Он/Она водит машину быстро.	U mashinani tez haydaydi.
Он/Она понимает меня.	U meni tushunadi.
Он/Она рано начинает урок.	U darsni erta boshlaydi.
Он/Она заканчивает урок поздно.	U darsni kech tugatadi.

Основная часть 7 Вопросы и ответы

Я живу в Ташкенте.

Ты живешь в Ташкенте?

Да, я живу в Ташкенте.

Ты живешь в Испании?

Нет, я не живу в Испании.

Ты живешь в Ташкенте?

Да, я живу в Ташкенте.

Ты живешь в Англии?

Нет, я не живу в Англии.

Где ты живешь?

Я живу в Ташкенте.

Я изучаю русский язык.

Ты изучаешь русский язык?

Men Toshkentda yashayman.

Sen Toshkentda
yashaysanmi?

Ha, men Toshkentda
yashayman.

Sen Ispaniyada
yashaysanmi?

Yoʻq, men Ispaniyada
yashamayman.

Toshkentda yashaysanmi?

Ha, men Toshkentda
yashayman.

Sen Angliyada
yashaysanmi?

Yoʻq, men Angliyada
yashamayman.

Sen qayerda yashaysan?

Men Toshkentda
yashayman.

Men rus tilini oʻrganyapman.

Rus tilini oʻrganyapsanmi?

Да, я изучаю русский язык.

Они изучают русский язык?

Да, они изучают русский язык.

Ты изучаешь испанский язык?

Нет, я не изучаю испанский язык.

Ты изучаешь корейский язык?

Да, я изучаю корейский язык.

Какой язык ты изучаешь?

Я изучаю русский язык.

Я говорю по-английски.

Ты говоришь на английском?

Да, я говорю на английском.

Они говорят на английском?

Нет, они не говорят
на английском.

Вы говорите на английском?

Да, мы говорим на английском.

На каком языке ты говоришь?

Я говорю на английском.

Кто говорит на английском?

Ha, men rus tilini
o'rganyapman.

Ular rus tilini
o'rganishyaptimi?

Ha, ular rus tilini
o'rganishyapti.

Sen ispan tilini
o'rganyapsanmi?

Yo'q, men ispan tilini
o'rganganim yoq.

Sen koreys tilini
o'rganyapsanmi?

Ha, men koreys tilini
o'rganyapman.

Qanaqa tilni
o'rganyapsan?

Men rus tilini
o'rganyapman.

**Men ingliz tilida
gapiryapman.**

Sen ingliz tilida
gapirasanmi?

Ha, men ingliz tilida
gapiraman.

Ular ingliz tilida
gapirishadimi?

Yo'q, ular ingliz tilida
gapirishmaydi.

Ingliz tilida gapirasizmi?

Ha, biz ingliz tilida
gapiramiz.

Sen qaysi tilda gapirasan?

Men ingliz tilida
gapiraman.

Kim ingliz tilida gapiradi?

Я говорю на английском.

Я готовлю еду.

Ты готовишь еду?

Да, я готовлю еду.

Они готовят еду?

Нет, они не готовят еду.

А вы готовите еду?

Да, мы готовим еду.

Что ты делаешь?

Я готовлю еду.

Кто готовит еду?

Я готовлю еду.

Я люблю шашлык.

Ты любишь шашлык?

Да, я люблю шашлык.

Они любят шашлык?

Нет, они не любят шашлык.

Вы ненавидите шашлык?

Нет, мы не ненавидим шашлык.

Ты не любишь шашлык?

Men ingliz tilida
gapiraman.

**Men ovqat
tayyorlayapman.**

Sen ovqat
tayyorlayapsanmi?

Ha, men ovqat
tayyorlayapman.

Ular ovqat
tayyorlashmoqdami?

Yo'q, ular ovqat
tayyorlashmayapti.

Siz ovqat tayyorlayapsizmi?

Ha, biz ovqat
tayyorlayapmiz.

Sen nima qilyapsan?

Men ovqat tayyorlayapman.

Kim ovqat tayyorlayapti?

Men ovqat tayyorlayapman.

**Men shashlikni
yoqtiraman.**

Sen shashlikni
yoqtirasanmi?

Ha, men shashlikni
yoqtiraman.

Ular shashlikni
yoqtirishadimi?

Yo'q, ular shashlikni
yoqtirmaydilar?

Siz shashlikni yomon
ko'rasizmi?

Yo'q, biz shashlikni yomon
ko'rmaymiz.

Sen shashlikni
yoqtirmaysanmi?

Нет, я не ненавижу шашлык.

Что ты любишь?

Я люблю шашлык.

Я кушаю шашлык.

Ты кушаешь шашлык?

Да, я кушаю шашлык.

Вы едите плов?

Нет, мы не едим плов.

Они едят шашлык?

Да, они едят шашлык.

Что ты ешь?

Я ем шашлык.

Я пью чай.

Ты пьешь чай?

Да, я пью чай.

Вы пьете чай?

Да, мы пьем чай.

Что вы пьете?

Мы пьем чай.

Они пьют сок?

Да, они пьют сок.

У меня есть новая машина.

У тебя есть новая машина?

Да, у меня есть новая машина.

Какая у вас есть машина?

У нас есть новая машина.

У них есть старая машина?

Нет, у них нет старой машины.

Yo'q, men shashlikni

yomon ko'rmayman.

Sen nimani yoqtirasan?

Men shashlikni

yoqtiraman.

Men shashlik yeyapman.

Sen shashlik yeysanmi?

Ha, men shashlik yeuman.

Siz osh yeysizmi?

Yo'q, biz osh yemaymiz.

Ular shashlik yeyishadimi?

Ha, ular shashlik yeyishadi.

Sen nima yeyapsan?

Men shashlik yeyapman.

Men choy ichyapman.

Sen choy ichyapsanmi?

Ha, men choy ichyapman.

Siz choy ichasizmi?

Ha, biz choy ichamiz.

Siz nima ichyapsiz?

Biz choy ichyapmiz.

Ular sharbat ichishyaptimi?

Ha, ular sharbat ichishyapti.

Menda yangi mashina bor.

Senda yangi mashina

bormi?

Ha, menda yangi mashina

bor.

Qanaqa mashinangiz bor?

Bizda yangi mashina bor.

Ularda eski mashina

bormi?

Yo'q, ularda eski mashina

yo'q.

У них есть новая машина.

Я работаю в госпитале.

Ты работаешь в госпитале?

Да, я работаю в госпитале.

Ты работаешь в офисе?

Нет, я не работаю в офисе.

Где ты работаешь?

Я работаю в госпитале.

Они работают в школе?

Да, они работают в школе.

Я читаю много книг.

Вы читаете много книг?

Да, мы читаем много книг.

Сколько книг ты читаешь?

Я читаю много книг.

Кто читает много книг?

Я читаю книги.

Я слушаю музыку.

Ты слушаешь музыку?

Да, я слушаю музыку.

Кто слушает музыку?

Я слушаю музыку.

Ты слушаешь музыку на уроке?

Нет, я не слушаю музыку на уроке.

Ularda yangi mashina bor.

Men kasalxonada ishlayman.

Sen kasalxonada ishlaysanmi?

Ha, men kasalxonada ishlayman.

Sen idorada ishlaysanmi?

Yo'q, men idorada ishlamayman.

Sen qayerda ishlaysan?

Men kasalxonada ishlayman.

Ular maktabda ishlashadimi?

Ha, ular maktabda ishlashadi.

Men ko'p kitoblar o'qiyman.

Siz ko'p kitob o'qiysizmi?

Ha, biz ko'p kitob o'qiyemiz.

Sen nechta kitob o'qiysan?

Men ko'p kitob o'qiyman.

Kim ko'p kitob o'qiydi?

Men kitoblarni o'qiyman.

Men musiqa tinglayman.

Sen musiqa eshitasanmi?

Ha, men musiqa tinglayman.

Kim musiqa eshityapti?

Men musiqa eshityapman.

Sen darsda musiqa eshitasanmi?

Yo'q, men darsda musiqa eshitmayman.

Ты слушаешь музыку?

Да, я слушаю музыку.

Я еду в Термез.

Ты едешь в Термез?

Да, я еду в Термез.

Куда ты едешь?

Я еду в Термез.

Ты едешь в Испанию?

Нет, я не еду в Испанию.

Я чищу зубы.

Что ты чистишь?

Я чищу зубы.

Ты чистишь зубы?

Да, я чищу зубы.

Ты чистишь свой компьютер?

Нет, я не чищу мой компьютер.

Я играю в футбол.

Ты играешь в футбол?

Да, я играю в футбол.

Ты играешь в волейбол?

Нет, я не играю в волейбол.

Во что ты играешь?

Sen musiqa eshitasanmi?

Ha, men musiqa eshitaman.

Men Termizga

ketyapman.

Sen Termizga

ketyapsanmi?

Ha, men Termizga

ketyapman.

Sen qayerga ketyapsan?

Men Termizga ketyapman.

Sen Ispaniyaga

ketyapsanmi?

Yo'q, men Ispaniyaga

ketmayapman.

Men tishlarimni

yuvyapman.

Sen nimani tozalayapsan?

Men tishlarimni

tozalayapman.

Sen tishlaringni

tozalaysanmi?

Ha, men tishlarimni

tozalayman.

Sen kompyuteringni

tozalaysanmi?

Yo'q, man kompyuterimni

tozalamayman.

Men futbol o'ynayman.

Sen futbol o'ynaysanmi?

Ha, men futbol o'ynayman.

Sen voleybol

o'ynaysanmi?

Yo'q, men voleybol

o'ynamayman.

Sen nima o'ynaysan?

Я играю в футбол.

Кто играет в футбол?

Я играю в футбол.

Я просыпаюсь утром.

Ты просыпаешься ночью?

Нет, я не просыпаюсь ночью.

Ты просыпаешься во второй
половине дня?

Нет, я не просыпаюсь
во второй половине дня.

Когда ты просыпаешься?

Я просыпаюсь утром.

Я сплю ночью.

Ты спишь ночью?

Да, я сплю ночью.

Когда ты спишь?

Я сплю ночью.

Ты спишь утром?

Нет, я не сплю утром.

Я смотрю телевизор.

Что ты делаешь?

Я смотрю телевизор.

Ты смотришь телевизор?

Да, я смотрю телевизор.

Ты слушаешь радио?

Нет, я не слушаю радио.

Я задаю вопрос.

Ты задаешь вопрос?

Да, я задаю вопрос.

Ты отвечаешь на вопросы?

Men futbol o'ynayman.

Kim futbol o'ynaydi?

Men futbol o'ynayman.

Men ertalab uyg'onaman.

Sen tunda uyg'onasanmi?

Yo'q men tunda

uyg'onmayman.

Sen kunduzi

uyg'onasanmi?

Yo'q, men kunduzi

uyg'onmayman.

Qachon sen uyg'onasan?

Men ertalab uyg'onaman.

Men tunda uxlayman.

Sen tunda uxlaysanmi?

Ha, men tunda uxlayman.

Sen qachon uxlaysan?

Men tunda uxlayman.

Sen ertalab uxlaysanmi?

Yo'q, men ertalab

uxlamayman.

Men televizor ko'ryapman.

Sen nima qilyapsan?

Men televizor ko'ryapman.

Sen televizor ko'ryapsanmi?

Ha, men televizor

ko'ryapman.

Sen radio tinglaysanmi?

Yo'q, men radio

tinglamayman.

Men savol beryapman.

Sen savol beryapsanmi?

Ha, men savol beryapman.

Sen savollarga javob

berypsanmi?

Да, я отвечаю на вопросы.

Я покупаю ручку / карандаш.

Ты покупаешь ручку?

Да, я покупаю ручку.

Ты покупаешь карандаш?

Да, я покупаю карандаш.

Мы покупаем
ручку или они покупают?

Мы покупаем ручку.

Они не покупают ручку.

Что ты покупаешь?

Я покупаю карандаш.

Я вожу машину.

Ты водишь машину?

Да, я вожу машину.

Кто водит машину?

Я вожу машину.

Мы водим машину?

Нет, мы не водим машину.

Я вожу машину.

Они водят машину?

Нет, они не водят машину.

Ha, men savollarga javob
bergapman.

**Men ruchka / qalam sotib
olyapman.**

Sen ruchka sotib
olyapsanmi?

Ha, men ruchka sotib
olyapman.

Sen qalam sotib
olyapsanmi?

Ha, men qalam sotib
olyapman.

Biz ruchka sotib
olyapmizmi yoki ular sotib
olyaptilarmi?

Biz ruchkani sotib
olyapmiz.

Ular ruchakani sotib
olishmayapti.

Sen nima sotib olyapsan?

Men qalam sotib olyapman.

Men mashina haydayman.

Sen mashina haydaysanmi?

Ha, men mashina
haydayman.

Kim mashina haydaydi?

Men mashina haydayman.

Biz mashinani
haydaymizmi?

Yo'q, biz mashina
haydamaymiz.

Men mashina haydayman.

Ular mashina haydashadimi?

Yo'q, ular mashina
haydashmaydi.

Я объясняю правила.

Ты объясняешь правила?

Да, я объясняю правила.

Они объясняют правила?

Нет, они не объясняют правила.

Мы объясняем правила?

Нет, мы не объясняем правила.

Ты понимаешь правила?

Да, я понимаю правила.

Я начинаю урок.

Ты рано начинаешь урок?

Да, я рано начинаю урок.

Мы начинаем урок?

Да, мы начинаем урок.

Мы заканчиваем урок?

Нет, мы не заканчиваем урок.

Они заканчивают урок.

Кто заканчивает урок?

Они заканчивают урок.

Он живет в Ташкенте?

Да, он живет в Ташкенте.

Он живет в Италии?

Men qoidalarni tushuntiryapman.

Sen qoidalarni tushuntiryapsanmi?

Ha, men qoidalarni tushuntiryapman.

Ular qoidalarni tushuntirishyaptimi?

Yo'q, ular qoidalarni tushuntirishmaydi.

Biz qoidalarni tushuntiramizmi?

Yo'q, biz qoidalarni tushuntirmaymiz.

Sen qoidalarni tushunasanmi?

Ha, men qoidalarni tushunaman.

Men darsni boshlayman.

Sen darsni erta boshlaysanmi?

Ha, men darsni erta boshlayman.

Biz darsni boshlaymizmi?

Ha, biz darsni boshlaymiz.

Biz darsni tugatamizmi?

Yo'q, biz darsni tugatmaymiz.

Ular darsni tugatishadi.

Kim darsni tugatadi?

Ular darsni tugatishadi.

U Toshkentda yashaydimi?

Ha, u Toshkentda yashaydi.

U Italiyada yashaydimi?

Нет, он не живет в Италии.

Где он живет?

Он живет в Ташкенте.

Он изучает английский язык с интересом?

Да, он изучает английский язык с интересом

Он изучает русский язык?

Нет, он не изучает русский язык.

Он уже знает русский.

Что он изучает?

Он изучает английский язык.

Он говорит хорошо на английском?

Да, он хорошо разговаривает на английском языке.

Он хорошо говорит на латыни?

Нет, он не говорит на латыни.

На каком языке он хорошо говорит?

Он хорошо говорит на английском.

Он плохо говорит на английском?

Нет, он не плохо говорит на английском.

Она вкусно готовит еду.

Она вкусно готовит еду?

Yo'q, u Italiyada yashamaydi.

U qayerda yashaydi?

U Toshkentda yashaydi.

U ingliz tilini qiziqib o'rganadimi?

Ha, u ingliz tilini qiziqib o'rganadi.

U rus tilini o'rganadimi?

Yo'q, u rus tilini o'rganmaydi.

U allaqachon rus tilini biladi.

U nimani o'rganadi?

U ingliz tilini o'rganadi.

U ingliz tilida yaxshi gapiradimi?

Ha, u ingliz tilida yaxshi gapiradi.

U lotin tilida yaxshi gapiradimi?

Yo'q, u lotin tilida gapirmaydi.

U qaysi tilda yaxshi gapiradi?

U ingliz tilida juda yaxshi gapiradi.

U ingliz tilida yomon gapiradimi?

Yo'q, u ingliz tilida yomon gapirmaydi.

U ovqatni mazali pishiradi.

U ovqatni mazzali pishiradimi?

Да, она вкусно готовит еду.

Он любит шашлык?

Да, он любит шашлык.

Что он любит?

Он любит шашлык.

Какую еду он любит?

Он любит шашлык.

Он любит лаваш?

Он не любит лаваш.

Где он ест шашлык?

Он ест шашлык в ресторане.

Он пьет чай.

Он пьет чай?

Да, он пьет чай.

Он пьет кофе?

Нет, он не пьет кофе.

Что он пьет?

Он пьет чай.

У него есть новая машина.

У него есть новая машина?

Да, у него есть новая машина.

У него есть старая машина?

Нет, у него нет старой машины.

Где он работает?

Ha, u ovqatni mazzali pishiradi.

U shashlikni yaxshi ko'radimi?

Ha, u shashlikni yaxshi ko'radi.

U nimani yaxshi ko'radi?

U shashlikni yoqtiradi.

U qanday ovqatni yoqtiradi.

U shashlikni yoqtiradi.

U lavashni yoqtiradimi?

U lavashni yoqtirmaydi.

U shashlikni qayerda yeydi?

U shashlikni restoranda yeydi.

U choy ichadi.

U choy ichadimi?

Ha, u choy ichadi.

U kofe ichadimi?

Yo'q, u kofe ichmaydi.

U nima ichadi?

U choy ichadi.

Unda yangi mashina bor.

Uning yangi mashinasi bormi?

Ha, uning yangi mashinasi bor.

Uning eski mashinasi bormi?

Yo'q, uning eski mashinasi yo'q.

U qayerda ishlaydi?

Он работает в госпитале
каждый день.

Он каждый день работает
в госпитале?

Да, он работает в госпитале
каждый день.

Она читает много книг
в библиотеке.

Она читает много книг
в библиотеке?

Да, она читает много книг
в библиотеке.

Он читает журналы
в библиотеке?

Нет, он не читает журналы
в библиотеке.

Где он читает книги?

Он читает много книг
в библиотеке.

Она слушает музыку.

Она слушает музыку?

Да она слушает музыку.

Он едет в Термез.

Куда он едет?

Он едет в Термез.

Он едет в Вегас?

Нет он не едет в Вегас.

Он чистит свои зубы.

Что она делает?

Она чистит свои зубы.

Он играет футбол на улице.

Он играет в футбол?

Да, он играет в футбол.

U har kuni kasalxonada
ishlaydi.

U kasalxonada har kuni
ishlaydimi?

Ha, u kasalxonada har kuni
ishlaydi.

U kutubxonada ko'p kitob
o'qiydi.

U ko'p kitob o'qiydimi?

Ha, u ko'p kitob o'qiydi.

U kutubxonada jurnal
o'qiydimi?

Yo'q, u kutubxonada jurnal
o'qimaydi.

U qayerda kitob o'qiydi?

U ko'p kitobni
kutubxonada o'qiydi.

U musiqa eshitadi.

U musiqa eshitadimi?

Ha, u musiqa eshitadi.

U Termizga boradi.

U qayerga boradi?

U Termizga boradi.

U Vegasga boradimi?

Yo'q, u Vegasga
bormaydi.

U tishlarini yuvadi.

U nima qiladi?

U tishlarini yuvadi.

U ko'chada futbol
o'ynaydi.

U futbol o'ynaydimi?

Ha, u futbol o'ynaydi.

Где он играет в футбол?	U qayerda futbol o'ynaydi?
Он играет в футбол на улице	U ko'chada futbol o'ynaydi.
Он играет в волейбол?	U voleybol o'ynaydimi?
Нет, он не играет в волейбол.	Yo'q, u voleybol o'ynamaydi.
Она встает утром.	U ertalab uyg'onadi.
Она встает утром?	U ertalab uyg'onadimi?
Да, она встает утром.	Ha, u ertalab uyg'onadi.
Она встает в обед?	U tushdan keyin uyg'ondimi?
Нет, она не встает в обед.	Yo'q, u tushdan keyin uyg'onmadi.
Когда она просыпается?	Qachon u uyg'onadi?
Она просыпается утром.	U ertalab uyg'onadi.
Во сколько она просыпается?	U soat nechada uyg'onadi?
Она просыпается в 7:00.	U soat 7:00 da uyg'onadi.

Sharh

Salom, mening qadrdonim! Kayfiyatlar qanday? Siz bilan birinchi darsimiz yakunida ko'rishib turganimdan juda hayajondaman. Xo'sh, qanday bo'lyapti? Keling, ba'zi narsalarni takrorlab olamiz. Ushbu darsni bugun yana bir necha bor tinglang. Vazifangiz tez borish emas. Darsni kamida bir hafta har kuni hech bo'lmasa bir soatdan tinglang. Eshitayotganda zavqlaning. Harakatda bo'ling. Chuqur nafas olish esdan chiqib qolmasin. Yuzingizda KATTA tabassum bo'lsin. Savollarga tez-tez javob bering. Xatolarga e'tibor qilmang. Kamida 20 marta tinglang. 30 marta takrorlasangiz, yanayam zo'r. Sizga o'xshagan insonlar doim kutilgandan ko'ra ko'prog'iga erishadilar. Demak, bugungi darsni yana eshitamiz.

Bu qismda nima o'rganamiz?

Men psixolog emasman. Lekin muvaffaqiyat faniga kirib, bu sohada 2000 soatdan ko'proq o'qidim, o'rgandim. 200 dan ortiq kitob ko'rdim. 1000 dan ortiq audio darslar eshitdim. Son-sanoqsiz seminarlarda qatnashdim. Psixologlarga o'xshab pozitiv fikrlash haqida gapirish niyatim yo'q. Chunki qanchalik pozitiv o'ylamang, «kal bosh kalligicha turaveradi». Men sizlarga har bir darsim yakunida, agar amalda qo'llasangiz, qisqa vaqtda o'zgarishlar olib keladigan muvaffaqiyat retseptlarini berib ketmoqchiman. Men shu retseptga amal qilganimda, bir necha soniyalar ichida natijaga erishganman. Siz ham chin dildan harakat qilib, uni amalda qo'llasangiz muvaffaqiyat qozonasiz.

Birinchi muvaffaqiyat darsi. Muvaffaqiyat maqsadlardan boshlanadi. Har bir muvaffaqiyatli insonning ulkan maqsadlari bor. Ular o'z maqsadlarini yozib borishadi. Siz ham shunday qiling. Ro'yxatlar tuzing. Hamma moliyaviy mustaqllikka erishgan odamlar ro'yxat tuzuvchilardir. Xayoldagi maqsadlaringizni daftarga yozganingizdan so'ng ularga erishish imkoniyati naqadar ortishini tassavur ham qila olmaysiz. Amerikadagi universitetlardan birining talabalari orasida so'rovnoma o'tkazilibdi. Natijalardan ma'lum bo'lishicha, 3% bitiruvchi talabalarining maqsadlari aniq ekan, chunki ular maqsadlarini yozib borganlar, taxminan 14% o'quvchilarning maqsadlari bor, lekin hali yozuvda emas. Qolgan 83% talabalarda esa aniq maqsadlar yo'qligi ma'lum bo'libdi. 10 yildan keyin xuddi shu talabalarining qanday natijalarga erishganligini bilish uchun yana so'rov o'tkazilibdi. 14% maqsadlari mavjud, lekin ularni yozmagan talabalar 83% maqsadlari yo'q talabalardan 2 barobar ko'proq muvaffaqiyatga erishishibdi. 3% maqsadlari aniq bo'lgan insonlar esa qolganlardan 10 marta muvaffaqiyatliroq ekanligi aniqlangan. Demak, maqsad qo'yish hamda yozish sizni shunchalar darajada oldinga chiqarib yuboradi. Sevimli muallifim Brayan Treysi aytganidek, siz yo o'zingizning maqsadlaringizga erishasiz, yoki maqsadi borlar maqsadlariga erishishi uchun ishlaysiz. Quyidagi mashqni bajaring:

1. Qog‘oz va ruchka olib o‘zingizning 10 ta maqsadingizni yozing.

2. Bularning ichidan eng katta maqsadni belgilab oling. Eng katta maqsad – boshqa maqsadlarga erishishingiz uchun yordam beradigan maqsad. Agar shunday maqsadingiz bo‘lmasa, sizning hozirgi eng katta vazifangiz uni topishdir.

3. Bosh maqsadingizga «Unga qanday erishaman?» degan savol ko‘rinishini berasiz. Savolga 20 ta javob yozasiz (bular maqsadga erishish uchun amalga oshirishingiz lozim bo‘lgan vazifalardir) va shu ondanoq ularni amalga oshirishni boshlang. Bugun soat 2:00, 2:01, 2:03, ... yoki kechroq 5:00, 5:33, 5:45, 5:56, ... Xullas, harakatni boshlang. Qancha imkoniyatingiz borligini o‘zingiz ham sezib turibsiz.

Bu mashqni men ko‘pchilikka ulashganman. Natijasini ko‘rganman. Endi siz ham sinab ko‘ring.

УПОК II

2-DARS

Assalomu alaykum!

Ikkinchi darsimizga xush kelibsiz. Uni boshlashdan avval qomatlarni rostlab, chuqur-chuqur nafas olamiz, tabassum qilamiz hamda mavzuni eshitayotib bir joyda turib qolmaymiz. Bir yaxshi musiqa qo‘yib, raqsga tushib olsangiz ham bo‘ladi. Kayfiyatlar ko‘tarilgach, quyidagi tartibda darslarimizni boshlaymiz.

Главное аудио qismlarini shunchaki tinglang.

Eshitayotganda tarjimasiga qarab turing. Maqsad – kitobga qaramay ham eshitib tushuna olish. Kitobsiz tushuna olishni boshlashingiz bilan matndan voz keching va eshitib tushunishga harakat qiling!

Savol-javob (Мини рассказ) qismlarida savollarga javob berishni boshlang. Kerak bo‘lsa, kompyuterdagi «pause» tugmasidan foydalaning. Boshida sekin-sekin javob bersangiz ham bo‘ladi.

Savol-javob shaklidagi darslarimizga tezroq javob bering.

Darslarni har kuni kamida 1 soatdan 7 kun yoki undan ko'proq vaqt davomida tinglang. Har bir o'quvchining o'rganish tezligi turlicha bo'ladi. Ushbu sistemamiz orqali siz o'zingizning tezligingizga mos ravishda tilni o'rganish imkoniyatiga egasiz.

Savol: «6 oy davomida darslarni muntazam tinglab borganimda ham rus tilida erkin gapirishga to'sqinlik qiladigan eng kuchli sabablar qaysilar va ularni bartaraf etish uchun nimalar qilishim kerak?»

Javob: Agar darslarni aynan sistemadagiday eshitsangiz, gapira olmasligingiz mumkin emas. Ko'pchilik sistemaning quyidagi qoidalarini buzgani tufayli kutilgan natijaga erisholmay qolishi mumkin. Sistemada nimani qanday qilish kerak bo'lsa, shunday amalga oshiring. Quyida siz ilg'amay qoladigan xatolarni aytib o'taman.

